



**MAVZU: TOG'AY MUROD VA ISAJON SULTON ASARLARIDA ASAR
BADIYYATI, MUKAMMALLIGINI TA'MINLASHDA
FOLKLORIZMLARNING ROLI**

Erkinboyeva Lobarxon Otanazar qizi

Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya:

mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati, folklarga xos unsurlarning zamonaviy hikoyachilikda qo'llanilishi, ayniqsa, "Ot kishnagan oqshom", "Otamdan qolgan dalalar", "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi", "Oydinda yurgan odamlar" kabi asarlari bilan tanilgan Togay Murod o'zbek adabiyotida milliylik ruhni aks ettirdi. Mahoratli yozuvchi Isajon Sulton hikoyalari asosida tush motivi, miflarning poetik jozibasi ilmiy tahlil qilindi. Shuningdek, ijodkor uslubining shakllanishida xalq og'zaki ijodi namunalarining ahamiyati va ro'li nazariy jihatdan yoritildi.

Kalit so'zlar: folklorizm, folklor, maqol, ibora, matal, doston, qissa, poetik uslub, psixologik munosabatlar, motiv, tush motivi, mif, safar motivi, tog' timsoli, qahramon, obraz, poetika, badiiyat, uslub, syujet.

Tog'ay Murod Mengnorov o'zbek milliy adabiyotining o'ziga xos ovozga ega bo'lgan noyob vakillaridan biridir. U 1948- yili Surxondaryo viloyatining Denov tumani, Xo'jasoat qishlog'ida tavallud topgan. Isajon Sulton esa, 1967-yilda Farg'ona viloyati, Rishton tumanida tug'ilgan. Tog'ay Murod hamda Isajon Sulton asarlarida millatning yaqin yuz yillikdagi fojiasi haqida ma'lumot beradi, ularning asarlarida madaniyatlar to'qnashadi, zulmning qiyofasi ochiladi, xo'rlangan ruh, milliy madaniyat qadimiy ohanglarda tirilib millatga qaytariladi. Bu ijodkorlar asarlari o'zbek adabiyotidagi yangilanishni aynan milliylikka asoslanib yaratilgani bilan ham ajralib turadi. Adabiyot tarixiga nazar tashlasak, xalq og'zaki ijodi sarchashmalaridan oziqlanmagan, ijodiy madad olmagan birorta san'atkorni uchrata olmaysiz. T.Murod hamda I.Sultonning asarlari bevosita folklordan o'sib chiqqan, xalq og'zaki ijodining zamonaviy yozma bir ko'rinishi deyishimiz mumkin. Negaki, ular o'z asarlarida nafaqat xalq maqollari va matallari, iboralaridan foydalanadi,



balki xalqona mushohada yuritishdi, bo'layotgan voqea-hodisalarni xalqona ko'z bilan ko'rib, ulardan xulosalar chiqarishdi. Bu ijodkorlar asarlarining badiiy qurilmasi va uslubidagi xalq ertaklari, afsonalari, rivoyatlariga xos bayonchilik, soddalik, qolaversa, ertak qahramonlariga o'xshash jabrlangan, sodda, oddiy odamlarning turmush tashvishlari, ularning o'y-xayollari o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etadi. Masalan, Isajon Sultonning "Oydinbuloq", "Avazboylik tantilar", "Bibi Salima", "Shamolli kecha", "Bog'i Eram", "Manzil", "Qish ertaklari", "Ona-yurt sog'inchi" kabi qator hikoyalarida, T.Murodning birinchi qissasi «Yulduzlar mangu yonadi» qissasidayoq sezish mumkin. T.Murod qissada xalq iboralaridan ham o'rinli foydalanadi. Xususan, Bo'ri polvon taqdiri hal bo'ladigan lavha tasviriga bag'ishlangan sahifalarda bu holat yaqqol seziladi. «Davrada odati bo'yicha bosh bakovul ro'parasiga- unga talab qilgan yosh polvonning qabatiga borib o'tirishi kerak. Biroq qurning o'rtasiga borib cho'k tushdi. Bo'ri polvon o'zining bu harakati bilan anavi yosh bola bilan yonma-yon o'tirishga or qilishini bildiradi. Yosh polvonga ko'rpangga qarab oyoq uzatsangchi, degan qarash qildi». Matnda ishlatilgan «ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi» iborasi qissa qahramonning ayni paytdagi kayfiyatini to'la va aniq ochishga xizmat qilgan. Bo'ri polvon Ismoil polvonni mensimasdan qurni aylanib yura boshlaydi. Ozgina fursat o'tgach, umrida birinchi marta «yulduz sanaydi», ya'ni o'sha mensimagani Ismoil polvondan yengilib, kuragi yerga tegadi. Keyingi voqealar ham bizga xalq dostonlarini eslatadi. Bo'ri polvon ertasiga uyida ho'kiz so'ydirib, katta qozonda polov damlatadi. Xeshu aqrabo, hamsoylar, qishloqning gapga yetar odamlarini chaqiradi. Davra bilan butunlay xayrlashganini, ya'ni kurash tushishni butunlay qo'yganligini e'lon qiladi. Hamqishloqlarining iltimoslariga qaramay olishuvni butunlay tark etib, ko'p o'tmay uylanib oladi. Yozuvchining «Ot kishnagan oqshom» qissasi ham muallif tomonidan folklorga yanada yaqinlashish ro'y berganligini ko'rsatadigan asardir. Qissa quyidagi jumla bilan boshlanadi: «Birodarlar, ko'rgilik-da, ko'rgilik! Bir erta uyg'onib, kallamga qo'l yugurtirsam, sochlarim orasida yara-chaqa uch beribdi. Parvoyi palak yuraverdim. Onagayam aytmadim». Keltirilgan matn parchasidan ko'rinib turibdiki, bu jumlar xalq dostonlarini baxshilarning bayon usulini eslatadi. Shuning uchun asar bir o'tirishda o'qiladi. Asar kitobxonni o'zi bilan ergashtirib, dashtga yetaklaydi, qaxramonlar bilan qo'shib, dashtning sof havosidan to'yib-



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

to'yib nafas olgandek, ular bilan qo'shilib uloq chopgandek bo'lasiz. Shu bilan birga Isajon Sultonning asarlarida ham bu kabi mavzu o'ziga xos tarzda ifodalangan. Uning o'ziga xosligi folklorizm bilan zamonaviylikni birlikda uyg'unlashtira olganligidir. Adib o'zbek adabiyotining nodir durdonalari bo'lmish xalq og'zaki ijodi namunalariga katta qiziqish bilan qaragan va folklorizmi o'z ijodida ham aks ettirgan. Masalan, folklor janrining tarkibiga kiruvchi tush motivini olsak. Aynan tush motivi Isajon Sulton hikoyalarida ko'proq uchraydi. Bunga misol qilib "Qismat", "Otamga nimadir bo'ldi", "Avliyo" hikoyalairini keltirishning o'zi yetarli. Endi mazkur hikoyalardagi tush motivi yetakchilik qiladi. O'zbek folklorida tush motivini alohida tadqiq qilgan olim Jabbor Eshonqul hisoblanadi. U tushlarning asar strukturasida tutgan o'rniga qarab ikki guruhiga ajratadi: 1) syujet o'zagini tashkil etuvchi na'munalar; 2) syujet ma'lum halqalarini bog'lovchi na'munalar Isajon Sulton hikoyalarida tush motivi, asosan, ma'lim halqalarini bog'lovchi vosita sifatida keladi va inson taqdiri, uning kelajagi to'g'risida sirli xabarlar haqidagi tasavvurlarni badiiy ifoda etishga xizmat qiladi. Yozuvchining "Avliyo" hikoyasidagi tush motivi taqdir va kelajakning amalga oshuvi insonning o'z intilishlari va xatti - harakatlariga bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Hikoya qahramoni Abduqodir bolalik paytida firdavs jannatini tushida ko'radi, keyinchalik yana uch- to'rt marotaba bir xil tush ko'radi. "Har safar to'rt tarafi qorong'ulik bo'lgan tushunarsiz bo'lgan bir makon ichida yashil nur og'ushida tovlanib ko'rinaradi"[Sulton I; 2017.186]. Bog' tarafiga ip kabi ingichka va yorug' nur tolasini bir yo'l monand cho'zilib ketgan edi. Abduqodir avval jannatni keyin do'zaxni ko'rishi bu -uning dunyoda qilgan amallarining samarasidir. Bu tush Abduqodirning hayoti risoladagidek o'tmayotgan umrga ishora qiladi. Bu hikoyada insonga bir marta beriladigan umr, u bir kun kelib tugashi, hech narsani orqaga qaytarib bo'lmasligi, inson qilgan barcha amallariga hisob - kitob qilinishi tabiat tasviri, ramz va majozlar orqali ochib berilgan. Yuqorida izohlab o'tilgan folklorizm va tush motivi Isajon Sultonning ko'plab asarlarida uchraydi. Aynan uning "Qismat" hikoyasida ham tush motivini uchratamiz. "Qismat" hikoyasida xalq og'zaki ijodiga aloqador bo'lgan tush motivi, qadimgi mifologik motiv baliq obrozi, qarg'ish kabi folklorizmlarni ko'rishimiz mumkin. "Qismat" hikoyasi o'z epigrafi bilan ham diqqatni tortadi. Hikoyada "Otangga cho'p otsang, kun o'tib bir kun farzanding senga tosh otmog'i mumkin" degan hikmatli gap



keltiradi. Epigrafdan ham ma'lumki asarda ota va bola munosabatlari yoritiladi va aynan voqealar tush motivi orqali ochib beriladi. Bu hikoyada qadimgi mifologik motiv - inson ruhining baliqqa aylanishi qahramonning ichki dunyosini ochib berishda asosiy vazifani bajargan. Otasi vafotidan keyin using ruhi baliqqa aylanishi, baliqning qozonda jizillab qovrilishini qahramon do'zax azobi sifatida qabul qiladi. Bu orqali u zulmkor otasini do'zax olovida qovrilayotganini tasavvur qiladi. Ruhning baliq bo'lib qozonda qovrilishi hikoya mazmunini kuchaytiradi. Hikoyada ona obrazining achchiq qismati, umr yo'ldoshidan biror marta ham yaxshilik ko'rmasada, undan ta'na-yu dashnomlar eshitsada, erini "rahmatiga olgan bo'lsin" deb eslaydi. Bu orqali biz sharq ayolining eriga bo'lgan sadoqatining go'zal ifodasini ko'rishimiz mumkin. Hikoyada adib asosiy e'tiborini insonning qilmishi tasviriga qaratgan. Haqiqatdan ham, biz hikoya oxirida otaga cho'p otsang, kun o'tib farzanding senga tosh otmog'i mumkin ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, T.Murodning ham Isajon Sultonning ham barcha asarlarida folklordan foydalanish, uning materiallarini qayta ishlash yozuvchining ijodiy uslubini belgilovchi bir omil sifatida ko'zga tashalandi. Ko'rinadiki, T.Murod va I.Sulton asarlari folklor materiallaridan shunchaki, asarning yengil o'qimishini ta'minlovchi, boshqacha aytadigan bo'lsak, qissalarning xalqchilligini ta'minlash uchun foydalanmaydi. Bu ijodkorlar boshqa adiblardan farqli o'laroq kitobxon ko'z oldida folklordan foydalanuvchi adib emas, balki bevosita folklor asarini yaratuvchi ijodkor sifatida gavdalanadi. Ya'ni u folklordan asar shaklini yuzaga keltirishdagina emas, balki mazmunni maydonga keltirishda ham ustalik bilan foydalanadi. Adiblarning asarlarida folklor unsurlaridan foydalanish muallifning estetik-idealini namoyon qiluvchi, dunyoqarashini ifoda etuvchi vosita sifatida qabul qilinadi. T. Muroda va I.Sultonning asarlari orqali milliy o'zlikni ifoda etish bilan birga, insonning tirikligi, hayoti va bu dunyoga kelishidan maqsad ne ekanligini anglash inson uchun g'oyatda muhim vazifa ekanini uqtiradi.

FOYDALANILGA N ADABIYOTLAR

1. Tog'ay Murod. «Otamdan qolgan dalalar». Toshkent. «Sharq», 1998.
2. Tog'ay Murod. «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi». Toshkent. «Sharq», 2001.
3. Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi. Toshkent, «Fan» 1984.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th January, 2025

-
4. Karimov N, Nazarov B., Normatov U., Mamajonov S., Sharafiddinov O.
 5. Umurov X. "Adabiyotshunoslik nazariyasi"-T:Sharq,2002y.
 6. Sarimsoqov B. "Badiiylik asoslari va mezonlari". Toshkent. Fan. 2004
 7. Eshanova Z. "O'zbek xalq dostonlarida tog' obrazi: genezisi va badiiy talqinlari" Toshkent. 2018-yil.
 8. Kuronov.D, Mamajonov Z, Sheralieva M "Adabiyotshunoslik lug'ati"-Toshkent.Akademnashr, 2010
 9. Isajon Sulton Avliyo/ Asarlar . Hikoyalar 1- jild -Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.
 10. Ulug'bek Hamdam. Oydinbuloq oydinligi //Isajon Sulton nasri badiiyati -Toshkent:Turon zamin ziyo, 2017